

MUSHUK, QO'CHQOR VA XO'ROZ (Chexiya xalq ertagi)

Bir dehqonnikida bir mushuk yasharkan-u, uy bekasi Verunaning uni ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q ekan. Sho'rlik jonivorni ayamay urar, qon qaqshatar, ovqat bermay och-nahor tashlab qo'yarkan. Oxiri bunday xo'rliklarga chidolmagan mushuk:

-Menga kun bermaydigan bo'lsang, sichqonlarni o'zing tut, — debdi-da, uyidan bosh olib chiqib ketibdi.

U o'rmondan ketib borayotgan ekan, bir qo'chqor duch kelibdi.

-Salom berdik, qo'chqortoy, yo'l bo'lgay? — debdi mushuk.

Qo'chqor unga javoban:

-Boshim oqqan tomonga, — debdi. — Xo'jayinim, boshga bitgan balo bo'lding, zararing tegishdan boshqaga yaramaysan, deb har nafasda o'sal qilgani-qilgan. Shunday zada bo'lib ketdimki, pichoq borib suyakka qadaldi. Qo'zilaring bilan sovliqlaringni o'zing eplayver, dedim-u, bosh olib chiqib ketdim.

Mushuk bilan qo'chqor birga-birga ketishayotgan ekan, bir xo'roz yo'liqibdi.

-Yo'l bo'lsin, babaqvoy? — deb so'rashibdi ikkalasi xo'rozdan.

-Boshim oqqan tomonga, — javob beribdi xo'roz. — Bekamning juda mendan ko'ngli sovidi. Don-suvdan juda siqib qo'ydi, saralarini tovuqlarga beradi-da, oldimga sarqitlarini keltirib tashlaydi. Tuxum qilmaysan-u, shovqining dunyoni buzguday, deb ta'na qilgani-qilgan. Mana bu zarbof libosimga qarab zavqlanishni ham bilmaydi. Bor-e, dedim-u, unikidan chiqib ketdim. Jo'jalarni boqish, tovuqlarni eplash, ularni burgutdan asrash qanaqa bo'lishini bir bilib qo'ysin.

Qo'chqor, mushuk va xo'roz — uchovlon birgalashib yo'lda davom etishibdi. Kun kechga yaqinlashib, endi tunash taraddudini ko'rish lozim bo'libdi. Shunda xo'roz savol tashlabdi:

-Hoy og'aynilar, qayerda tunaymiz bugun?

Qo'chqor debdi:

-Bu yerdan sal narida bir uycha bor, o'sha yerda tunaymiz.

Mushuk bilan xo'rozni biroz vahima bosibdi-da, biroq keyin rozi bo'lishibdi.

Qo'chqor bilan xo'roz debdi:

-Mushukvoy, og'aynijon, uychada tunash xatardan xoli emas, ichimizda eng aqlligi ham, chaqqoni ham o'zingsan. Bor, uychada birov bormi, yo'qmi, bilib kel.

Mushukvoy uycha tomon yugurib ketibdi, hovlini ko'zdan kechiribdi, burchaklarni timirskilab chiqibdi, og'il va bostirmalarni qarabdi, xullas liamma narsa tayyor-taxt emish-u, tirik zotdan nom-nishon yo'qmish. Tezda iziga qaytib, qo'chqor bilan xo'rozni uychaga boshlab kelibdi. Hammalari ichkariga kirishibdi. Qoramosh o'choqdagi issiqqina qo'rga cho'zilibdi, xo'rozvoy pechka ustidagi qo'ndoqqa sakrab chiqib olibdi. Qo'chqortoy bo'lsa uycha o'rtasida yastanibdi.

Bu uycha aslida qaroqchilar makoni ekan.

Tun yarmida qaroqchilardan biri qaytib kelibdi. To'g'ri o'choqboshiga kelib, o'choqqa olov qo'ymoqchi bo'lgan ekan, mushukvoy shartta uning basharasiga chang solibdi, yuzlari timdalangan qaroqchi qo'rqqanidan dodlab yuboribdi. Irg'ib o'rnidan turib, uy o'rtasiga kelgan ekan, qo'chqor shunaqangi kalla qo'yibdiki, bechora yerga do'stamman tushibdi. Buni ko'rib qo'ndoqdagi xo'roz ovozinig boricha qichqiribdi:

-Ha barakalla, qo'chqortoy, yana bir kalla qo'y, yaxshilab ko'zi ochilsin!

Qaroqchining joni halqumiga kelibdi, kaftanini apil-tapil qo'liga olib, o'zini derazaga uribdi, yo'lida ikkita o'rdak bilan g'oz uchrab, ularni ham turtib yuborgan ekan, ular ham ovozlari boricha g'ag'alab, g'og'olab shovqin solishibdi.

-G'a-g'a-g'a, bopla, bopla! — deb qichqirishibdi o'rdaklar.

-Ur, G'o-g'o-g'o, ur! — deb qichqirishibdi g'ozlar.

Aqlli mushuk o'rtoqlariga maslahat solibdi:

-Ketik bu yerdan, og'aynilar, qaroqchilar kelib qolishsa, hammamiz tamom bo'lamiz!

Xo'roz bilan qo'chqor uning gapiga rozi bo'lishibdi. Rozi bo'lib to'g'ri ham qilishgan ekan. Ular ketishi bilan o'n ikki nafar qaroqchi kirib kelibdi va hamma burchaklarni titkilab chiqibdi, butun hovlini ostin-ustun qilibdi, lekin hech qayerda jon asari ko'rinmabdi.

Mushuk, qo'chqor va xo'roz esa salanglashganicha yo'llarida davom etaveribdi.

Bir vaqt qo'chqortoyning ko'ngli ozibdi-yu, sheriklariga qarab debdi;

-Menga qaranglar, og'aynilar, endi egalarimiznikiga qaytmaymizmi? Borib qaraylik-chi, bizsiz kunlari qanday o'tayaptiykin. Balki, ular ham insofga kelib qolishgandir?

Shunday qilib, uchovlon o'rtoq o'z-o'zlarining uylariga qaytib kelibdi. Mushuk to'g'ri hampaga chopibdi va darhol bitta sichqonni tutibdi. Sichqon qurmagur allaqachon un solingan qutini o'ziniki qilib olgan ekan.

Beka Veruna mushukni ko'rib o'zida yo'q suyunib ketibdi:

-Salom, qoramosh, qayoqlarga gumdon bo'lib ketding? Sensiz sichqonlar juda ta'zirimizni berdi, sal bo'lmasa bobom ikkalamizni kemirib tashlashayozdi. Hoynahoy qorning och bo'lsa kerak? Kel, mana bu kosachadagi sutni ich. Ich, ichaver! Endi har gal sigir soqqanimda senga sutdan berib turaman, faqat ikkinchi bunday qilmagin, xo'pmi, bizni tashlab ketma, xudo xayringni bersin.

Mushuk o'ylanib turib-turib, debdi:

-Ha mayli, nima ham derdim, shunisiga ham shukur, miyov.

Keyin sichqon ovlagani ketibdi.

U yoqda qo'chqorning egasi shundoq qo'raga kirib qarasaki, yo'qolgan qo'chqori joyida turganmish! O'zida yo'q quvonib, debdi:

-Qayoqlarda qolib ketding? Xayriyatki eson-omon qaytib kelibsan, bo'lmasa men na qo'zisiz, na yungsiz, na terisiz qoldim. Bo'пти, endi senga har kuni suli berib turganim bo'lsin, faqat, qo'chqortoy, iltimos, meni tashlab ketmagin, xudo xayringni bersin.

Qo'chqor javoban:

-Ha, endi nima ham derdim, shunisiga ham shukur, ba-a-a, — debdi.

Shu-shu qo'chqor qo'rada qolibdi.

Xo'rozning bekasi tovuqxonaga kirib, ne ko'z bilan ko'rsinki, daydijoni o'z o'rnida turibdi! Babaqning o'zi bilib qaytib kelganidan xursand bo'lib, aqlliligini maqtabdi:

-Tojginangdan o'zim o'rgilay, qayoqlarda yuribsan? Sen bo'lmasang uyimizda na tuxum bo'ladi, na jo'ja bo'ladi, sensiz anavi laqma tovuqlarni qanday uddalayman? Jon babag'im, endi unday qilmagin, meni tashlab ketmagin, xo'pmi? Xudo xayringni bersin...

Beka yormali bug'doyni xo'rozning oldiga to'kib qo'yibdi, har kuni seni shunday boqaman deb va'da beribdi.

Xo'roz suyunganidan qanotlarini pat-tat urib qichqirib yuboribdi:

-Qu-qu-quvv! Hay mayli, men roziman. Shunisiga ham shukur. Qu-qu-quvv!

Shunday qilib u tovuqxonada qolibdi.

Shunaqa, har kimning o'z vazifasi, o'z burchi bor bu dunyoda. Ammo xizmatiga yarasha mukofoti ham bo'lib turganga nima yetsin!

“Oltin shahzoda” kitobidan